

**“CHO'LJENSHENI” O‘SIMLIGINING O‘ZBEK XALQ TABOBATIDA
QO‘LLANILISHI**

Jo‘rayev Zuxuridin Najmidin o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: *Cistanche o‘simligi Janubiy va Markaziy Osiyo cho’llarida o‘sadigan o‘simlik bo‘lib, tarkibida ko‘plab fiziologik faol moddalar saqlaydi. Sistanxening dorivorlik xususiyati jenshenga nisbatan bir necha marta yuqori Cistanche o‘simligining dorivor xususiyatlari insoniyatga qadimdan ma’lum bo‘lib, Markaziy Osiyo, Xitoy, Hindiston xalq tabobatida ishlataligancha. Bu o‘simlik 2000 yildan beri an’anaviy xitoy tibbiyotida ishlataligancha. U an’anaviy xitoy tabobatida eng yaxshi kuchli dori sifatida tan olingan va “cho‘ljenshen” deb ataladi.*

Kalit so‘zlar: *Cistanche (lat. Herba Cistanche), oltin tomir, cho‘l jenshen, sho‘rxok sistanxe (lat. Cistanche salsa), cho‘l sistanxesesi (lat. Cistanche deserticola), Cistanche ambigua (Bunge) Beck, Cistanche salsa (C.A. Mey.) Beck, Cistanche mongolica Beck, Cistanche jodostoma Butk. et Vved., cistánchezan fitochoy tayyorlash.*

Ayni paytda Yer yuzida 500 ming tur o‘simlik mavjud bo‘lsa, uning faqat 20 ming turidan ozuqa sifatida foydalananiladi. 18 ming turi shifobaxsh xususiyatga ega. Keyingi yillarda aholining dorivor mahsulotlarga bo‘lgan talabi tobora ortib bormoqda. Bu borada respublikamizda farmatsevtika sanoatini rivojlantirish, aholini sifatlari dori-darmon vositalari bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu yo‘nalishda amalgaoshirilayotgan chora-tadbirlar asosida dorivor o‘simliklarni yetishtirishga ixtisoslashganfarmzonalar tashkil etish va dorivor o‘simliklarning xom ashyo bazasini yaratish bo‘yicha muhimnatijalarga erishilmoqda. Hozirgi vaqtida har bir hududning dorivor o‘simliklari va ularningxom ashyo bazasini aniqlash dolzalardan biridir.



Cistanche – ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik bo‘lib, asosan cho‘l, chala cho‘l va sho‘rxok hududlarda o‘sadigan juzg‘un, saksovul kabi o‘simliklarning ildizida tekinxo‘rlik (parazit o‘simlik, lat. Orobanchaceae Vent), qilib o‘suvchi o‘simlik hisoblanadi. Bo‘yi 40-50 sm, poyasi juda kalta, nisbatan kattaroq gullari o‘sish areali va turiga qarab sariqdan binafsha ranggacha bo‘ladi. Hozirgi vaqtida shimoliy Afrikadan boshlab to Xitoy cho’llarigacha bo‘lgan juda katta arealda ushbu o‘simlikning kamida 27 turi o‘sishi aniqlangan. Shundan 9 turi Markaziy Osiyo hududida o‘sadi. O‘simlik mart-aprel oylarida unib chiqadi. Bunda asosiy oziq manbasi bo‘lib, cho‘l buta va daraxtlari asosan saksovul xizmat qiladi. Yer tagida ungan sistanxe o‘ziga yaqin joylashgan saksovul ildiziga mustahkam yopishib, undan oladigan mineral oziq modda va suv hisobiga yerdan unib chiqadi va o‘sadi. O‘simlik aprel-may oylarida ba’zi xillari iyun oyida gullaydi, avgust o‘rtalarida urug‘i pishib yetiladi. Boshoqsimon ko‘rinishda gullaydi. Gulli qismi poyasiga nisbatan 80-90 foizni tashkil etadi. Gullari qo‘ng‘iroqsimon, uzunligi 3-5 sm, gulkosalari yirikroq, silindrishimon, qayrilgan. Changchilar tukli, uzunligi 3-4

mm. Gullari rangi sariq, pushti, binafsha rang. Uning tarkibidagi dorivor moddalarning eng ko‘p to‘planish vaqtiga gullah davrining oxirgi fazasiga to‘g‘ri keladi. Dorivor moddalar sistanxening ko‘rimsiz va juda kalta poyasida ayniqsa ko‘proq to‘planadi.

Cistanche o‘simgilining dorivor xususiyatlari insoniyatga qadimdan ma’lum bo‘lib, Markaziy Osiyo, Xitoy, Hindiston xalq tabobatida ishlatilgan.

Bunda asosan o‘simglikning poya qismidan foydalilanigan. Hozirgi vaqtida cistanche o‘simgili Markaziy Osyoning Qozog‘iston O‘zbekiston davlatlaridagi cho‘l va chala cho‘l hududlaridan yig‘ib olinib, Yaponiya, Xitoy va boshqa janubi-sharqi Osiyo mamlakatlariga yetkazib berilmuoqda. Hozirgi vaqtida Qozog‘iston Markaziy Osyonda sistanxeni qayta ishlab, eksport qilayotgan yagona davlat bo‘lib, uning asosiy xaridorlari Yaponiya, Xitoy va boshqa Shimoli-sharqi Osiyo davlatlaridir.

Biz yashayotgan **Farg‘ona vodiysida** *Cistanche ambigua* (Bunge) Beck, *Cistanche salsa* (C.A. Mey.) Beck, *Cistanche mongolica* Beck, *Cistanche jodostoma* Butk. et Vved. turlari o‘sadi. Cistanche ushbu turlarining ham dorivorlik xususiyatlari yuqori bo‘lib, antioksidantlik, neyroprotektorlik, immunitetni mustahkamlovchi xossalarga ega. Cistanche o‘simgilining tarkibi bo‘yicha Xitoy va Yaponiya olimlari bir qancha izlanishlar olib borishgan va uning tarkibida fenol hosilalari, shu jumladan fiziologik faol moddalar hisoblangan exiakozidlar, atsetozidlar, flavanoidlar va sistanozidlar mavjudligi, bu moddalar bilan kemiruvchilarda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida ularning antioksidantlik, neyroprotektorlik, yallig‘lanishga qarshilik ko‘rsatuvchi va immun tizimiga ijobiy ta’sir etuvchi xususiyatga ega ekanligini aniqlashgan. Cistanche o‘simgili vegetatsiyasining o‘simglik gullagan davri uning poya qismida dorivor moddalarning eng ko‘p to‘plangan davr hisoblanadi. Shu sababli o‘simglik ayni gullagan davrida uning yer ustki qismlari yig‘ib olinib, tuproq qoldiqlaridan tozalanadi va poya qismi kesib olinib, soya joyda, ochiq havoda quritiladi. Quritilgan o‘simglik qismlari quruq joyda, qog‘oz qoplarda saqlanadi. Odatda quritilgan sistanxe poyalari tarkibidagi faol moddalar 2 ylgacha o‘z xususiyatlarini saqlab qoladi.

Cistanche 2000 yildan beri Xitoy, Hindiston, Yaponiya va arab mamlakatlarida xalq tabobatida qo’llaniladi. Xitoyda Cistancedan kuchni oshirish, prostata bezining ayrim kasalliklarini davolash uchun foydalanadilar. Xitoy va Yaponiyada o‘simglikning poyasi siyditanosi tizimining yallig‘lanish jarayonlarida (sistit, nefrit, pielonefrit), ishlatiladi. Cistanche antioksidant xususiyatlari tufayli o‘simglik miya hujayralariga foydali ta’sir ko‘rsatadi, ularni shikastlanishdan himoya qiladi va erta qarishni oldini oladi va xotiraini faollashtiradi. O‘rta Osyonda yaralarni davolash uchun o‘simglik damlamasi ishlatilgan. Suvli ekstraktlari bakteritsid ta’siriga ega. Bu o‘simglik 2000 yildan beri an’anaviy xitoy tibbiyotida ishlatilgan. U an’anaviy xitoy tabobatida eng yaxshi kuchli dori sifatida tan olingan va “cho‘l jenshen” deb ataladi. U birinchi marta qadimgi yozma manbalarda jinsiy a’zolar, tayanch-harakat tizimi, siylik tizimi va erkaklar va ayollarda qon aylanishining buzilishida foydalanish uchun taklif qilingan. Qozog‘istonda fitochoy ko‘rinishida qadoqlash ishlari ham yo‘lga qo‘yilgan. Cistanche o‘simgidan tabiiy fitochoy tayyorlash uchun faqat tabiiy bo‘lgan, sun’iy bo‘yoq va to‘ldiruvchi komponentlar qo‘shilmagan o‘simglik ildizpoyasining quritib maydalanganidan bir choy qoshiq olinib 200 ml qaynagan suvga solinib 10-20 minut o‘rab qo‘yiladi. Tayyorlangan damlamadan kuniga ko‘pi bilan 100 ml ichish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Cistanche damlamasi inson xotirasini va aqliy qobiliyatini mustahkamlovchi, tinchlantiruvchi xususiyatlarga ega bo‘lib,

bosh miya neyronlarining faoliyatini muvozanatlashda va ularni erkin radikallardan himoyalashda o'zining samarali ta'sirini namoyon qiladi.

Cistanche turkumi vakillarining ahamiyati katta bo'l shiga qaramay, bizda bu o'simliklardan tibbiyotda ham, xalq tabobatida ham keng foydalilmagan. So'nggi yillarda *Cistanche mongolica* o'simligi ustida olib borilgan tadqiqotlar J.Tursunov ushbu muammoni hal qilishga qaratilgan.

Yozyovon cho'llari davlat tabiat yodgorligida *Cistanche mongolica* ni organish maqsadida olib borilgan dala tadqiqotlari natijasida tarqalish hududlari, tur populyatsiyalari ham aniqlandi. Men o'z oldimga Farg'ona vodiysida tarqalgan *Cistanche mongolica* o'simligining biologik va ekologik xususiyatlari o'rganishni maqsad qilib qo'ydim.

**ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Турсунов Ж.И., Ибрагимов А.А., Курбанов Б.И. *Cistanche Mongolica* нинг макро ва микроэлемент таркиби G.Bech // Universum:кимё ва биология: электрон. илмий журн. 2020. № 9 (75).
2. Флора Узбекистана: АН УзССР. Т.5., Ташкент-1961., 505-506 с
3. Облокулов Шавкат Шайимович Цистанхе (*Cistanche*) ўсимлигининг доривор хусусиятлари// О'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 20.08.2022. №10
4. www.floruz.uz
5. www.plantarium.uz
6. <https://kknews.uz/oz/9894.html>
7. <https://lektrava.ru/encyclopedia/cistankhe>